

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi  
**“VATAN TUYG‘USI”**  
fanidan 5-6-sinflar uchun takomillashtirilgan  
o‘quv dasturi va mavzu rejasi

**TOSHKENT-2012**

## Tushuntirish xati

Vatanni anglash – bu har bir insonning o‘zligini anglashi demakdir. Ammo, ushbu jarayon nihoyatda murakkab bo‘lib, uning muvaffaqiyatli kechishi yosh avlod ongiga «Vatan», «vatanga muhabbat» hamda «vatanparvarlik» tushunchalarini oila va maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab, uzluksiz, izchil, tizimli va maqsadga muvofiq ravishda singdirishni taqozo etadi. So‘z yuritilayotgan jarayonda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-6-sinflarida o‘qitilishi nazarda tutilgan «Vatan tuyg‘usi» fani, shubhasiz, o‘ziga xos o‘rin tutishi aniq.

«Vatan tuyg‘usi» fani o‘quvchilarga o‘zbek xalqi, uning shakllanish tarixi, milliy qadriyatlar, tarbiya an‘analari, boy madaniy meros va milliy istiqlolni qo‘lga kiritish jarayoni, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida erishilgan yutuqlar, ularning omillari, mustaqillikni asrash va mustahkamlash shartlari borasidagi bilimlarni berish, ularda «Vatan», «Vatanga bo‘lgan muhabbat», «mustaqillik», «vatanparvarlik» kabi tushunchalarni hosil qilish hamda ajdodlar ruhiga sodiqlik, milliy qadriyatlarga hurmat, Vatan ozodligi va ravnaqi yo‘lida mas‘ullikni his etish, milliy g‘urur, milliy iftixor, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yorqin kelajagiga ishonch tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mazkur fan bo‘yicha yaratilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi mazmuniga ma‘lum o‘zgartirishlarni kiritish «Vatan tuyg‘usi» fani doirasida o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan har bir tushuncha o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlik, izchillik va tizimlilikni ta‘minlash asosida o‘quvchilar tomonidan «Vatan» va «vatanparvarlik» tushunchalari mohiyatining to‘laqonli anglanishi va ularda vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy g‘urur, milliy iftixor va vatanparvarlik kabi sifatlarning tarbiyalanishiga erishish uchun samarali va maqbul didaktik shart-sharoitlarni yaratishi zarur.

«Vatan tuyg‘usi» fanini o‘qitish jarayonida quyidagi tamoyillar yetakchi o‘rin tutishi lozim:

- jamiyatda yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror torayotgan sharoitda har bir fuqaroning milliy o‘zlikni anglash hamda vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lishi Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yurt obodligi kafolati ekanligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi;
- fanlararo o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlik (mazkur o‘rinda tarix, adabiyot, Konstitutsiya olamiga sayohat va geografiya fanlari o‘rtasidagi aloqadorlikning ta‘minlanishiga alohida e‘tibor qaratish talab etiladi);
- o‘quvchilarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;
- o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikr yuritishlari uchun imkoniyat yaratish;
- nazariy g‘oyalarning hayotiy misollar asosida ochib berilishiga erishish;
- ta‘lim jarayonini texnologik va ijodiy yondoshuv asosida tashkil etilishi va hokozolar.

Dastur o‘quv materiallarining texnologik va ijodiy yondoshuv asosida tashkil etiluvchi mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganilishini nazarda tutadi. Ta‘lim jarayonida suhbat, bahs-munozara, uchrashuv, ekskursiya hamda amaliy mashg‘ulotlar (ijodiy insholar yozish, referat tayyorlash, test nazoratini tashkil etish, badiiy chiqishlarni tashkil etish va boshqalar) kabi shakl va metodlar, shuningdek, shaxsiy namuna ko‘rsatish, milliy madaniy meros namunalari, allomalarning rortretlari, vatanparvarlik g‘oyalarni targ‘ib etuvchi badiiy asarlar, kinofilm va teatr tomoshalari kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida milliy istiqlol g‘oyasi va huquq asoslari yo‘nalishi bo‘yicha bitta mutaxassis tayyorlanayotganligini e‘tiborga olgan holda “Vatan tuyg‘usi” va “Konstitutsiya olamiga sayohat” darslaridan umumta‘lim muassasalarida bitta o‘qituvchi dars berib kelmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 1322-sonli Farmoyishi asosida tashkil qilingan “Konstitutsiya olamiga sayohat” o‘quv kursini 5-6-sinf “Vatan tuyg‘usi” dasturlarining mazmuniga ta’sir qilmagan holda, takrorlash va amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hisobidan o‘qitish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda 1675-sonli qarorining 20-bandidagi “Mustaqil ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy usullarini joriy etish uchun 2012/2013 o‘quv yilidan boshlab darslarga ajratilgan o‘quv soatlarini 5% gacha qisqartirish maqsadida Xalq ta’limi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining amaldagi o‘quv rejasini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi topshirig‘iga asosan 2012/2013 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining o‘quv rejasidagi “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi “Vatan tuyg‘usi” (5-6-sinf) fani dasturi mazmuni o‘zgarmagan holda dars soatlari quyidagi tartibda qisqartirildi:

**5-sinf “Vatan tuyg‘usi” fanida** 2 soatdan rejalashtirilgan (12 soatlik dars) 6 ta - “Vatanni anglash”, “O‘zbekiston deya atalur”, “O‘zbekiston xalqi”, “O‘zbekiston Davlati Prezidenti”, “Mustaqillik – bu huquqdir”, “Vatanimiz timsollari” mavzulari (6 soat) 1 soatdan o‘qitiladi.

7 ta - “O‘zbekiston yagona Vatan”, “Vatanning bebaho ne‘matlari”, “Vatan tuyg‘usi – eng buyuk tuyg‘u”, “El-yurt tayanchi”, “Yagonasan, muqaddas Vatan”, “Vatan va xalq mangu qoladi”, “Vatan timsollari muqaddas” mavzularidagi (7 soatlik) amaliy mashg‘ulotlar hamda 2 ta nazorat ishi va 2 ta takrorlashga ajratilgan 4 soatlik dars dasturdan chiqarildi.

**6-sinf “Vatan tuyg‘usi” fanida** 15 ta – 15 soatga mo‘ljallangan “Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!”, “G‘ururimiz timsoli”, “Islohot – islohot uchun emas, inson uchun”, “Ajdodlar xotirasiga ehtirom”, “Yurtimiz bog‘lari”, “Biz – buyuk tarix egasimiz”, “Samarqand – ro‘yi zamin sayqali”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Buyuk allomalarimiz”, “Amir Temur bobomiz”, “Navro‘z sayli”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Ma’naviy jasorat – eng buyuk jasorat” “Biz hych kimdan kam bo‘lmaymiz”, “Yoshlar - vatan kelajagi” mavzularidagi amaliy mashg‘ulotlar hamda 2 ta nazorat ishi uchun ajratilgan 2 soatlik dars dasturdan chiqarildi.

Shuningdek, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi “Vatan tuyg‘usi” fanlari tarkibiga “**Hayot xavfsizligi asoslari**”, “**Sog‘lom avlod asoslari**”, “**Iqtisod va soliq saboqlari**” kurslari bo‘yicha mavzularni singdirib o‘qitish tavsiya etiladi.

Mazkur dastur ikki o‘quv yili davomida o‘rganilishi nazarda tutilgan mavzular mohiyatini ifodalaydi, mavzularning o‘rganilishi uchun jami 34 soat vaqt ajratilgan: 5-sinf “Vatan tuyg‘usi” uchun 17 soat, 6-sinf “Vatan tuyg‘usi” uchun 17 soat .

## **“Vatan tuyg‘usi”**

**5-sinf (17 soat)**

### **I bob. Ona yurtim – oltin beshigim**

#### **1-2-dars: Muqaddas Vatan (2 soat)**

Vatan – inson tug‘ilib o‘sgan, tarbiya topgan joy.

Vatan haqida ma'rifatparvar bobolarimizning fikrlari.

Qishloq mahalla va shaharlar.

Vatanimiz poytaxti – Toshkent.

Ko‘hna shaharlarimiz.

Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asari va Vatan haqidagi da'vatkor so‘zlari.

#### **3-dars: Vatanni anglash (1 soat)**

Vatan aniq joy bilan bog‘liq ekani.

Xalqimizning qadimdan o‘troq hayot kechirib kelishi.

Odamsod turli millat va ellatlarga, davlat va xalqlarga bo‘lingani.

Vatanni anglash qadrdon yurt bilan bog‘liq barcha xususiyatlarni puxta bilishni taqozo etishi.

#### **4-dars: Vatan tuyg‘usi (1 soat)**

Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u.

Vatan tuyg‘usining vorislik tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liqligi. Vorislikning ta'rifi.

Shajara va nasl-nasab haqida.

#### **5-6-dars: Oila - Vatan timsoli (2 soat)**

Ona bag‘ri inson uchun dastlabki Vatan ekani.

«Ona Vatan» tushunchasi.

Farzandlar kamoli – Vatan boyligi.

Bobolar o‘giti, otalar ibрати.

Oila jamiyat negizi (Prezident Islom Karimovning shu mavzuga oid fikrlari).

Mustaqillik yillarida oilaga e'tibor.

#### **7-dars: Vatanga muhabbat (1 soat)**

Vatanga muhabbat – eng ulug‘ tuyg‘u.

Vatan himoyasi.

Dunyo xalqlarining ertak, rivoyat, doston va she'rlarida qahramonlik, mardlik va fidoiylik fazilatlarining madh etilishi.

#### **8-dars: Amaliy mashg‘ulot: “Vatanga qasamyod” mavzusida suhbat (1 soat)**

#### **9-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

### **II bob. Jahon ichra yagona vatan**

#### **10-dars: O‘zbekiston deya atalur (1 soat)**

O‘zbekiston mamlakati, uning moddiy va ma'naviy boylıkları haqida.

Mintaqa, sivilizatsiya so‘zlarining ma'no-mazmuni.

O‘zbekiston zaminining 3-3,5 ming yillik madaniy tarixga ega ekani. Milliy va umumbashariy qadriyatlar haqida.

#### **11--dars: O‘zbekiston xalqi (1 soat)**

“Inson” va “fuqaro”, “O‘zbek xalqi” va “O‘zbekiston xalqi” degan tushunchalar haqida, xalq va millat so‘zlarining ma'nolari. O‘zbek xalqi dunyoning eng qadimiy xalqlaridan biri ekani. O‘zbekistonning ko‘pmillatli mamlakat ekani to‘g‘risida.

**12-dars: O‘zbekiston davlati va Prezidenti (1 soat)**

O‘zbekiston davlati.

O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni.

Huquqiy demokratik va dunyoviy davlat qurish yo‘lidagi sa'y-harakatlar.

Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston davlatchiligini tiklash va rivojlantirishdagi xizmatlari.

**13-dars: Amaliy mashg‘ulot: «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» mavzusida suhbat (1 soat)**

**14-dars: Mustaqillik – bu avvalo huquqdir (1 soat)**

Mustaqillik (istiqlol), suverenitet so‘zlarining ma’nosi. Istiqlol, erkin va ozod hayot o‘z-o‘zidan kelmagani.

Mustaqillikni asrash va mustahkamlash yo‘lida xizmat qilish har bir yurtdoshimizning muqaddas burchi ekani.

**15-dars: Vatanimiz timsollari (1 soat)**

Vatanning rasmiy va norasmiy timsollari.

Davlat ramzlari.

Vatan timsollarining tarbiyaviy ahamiyati.

**16-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**17-dars: Umumlashtiruvchi, yakuniy dars (1 soat)**

“Vatan tuyg‘usi” fanidan mavzu rejasi

5-sinf

Dars	Mavzular	Soati
<b>I Bob. Vatan ozodligi – oliy saodat</b>		
1-2-dars	Muqaddas Vatan	2 soat
3-dars	Vatanni anglash	1 soat
4-dars	Vatan tuyg‘usi	1 soat
5-6-dars	Oila - Vatan timsoli	2 soat
7-dars	Vatanga muhabbat	1 soat
8-dars	Amaliy mashg‘ulot: “Vatanga qasamyod” mavzusida suhbat	1 soat
9-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>II Bob. Jahon ichra yagona Vatan</b>		
10-dars	O‘zbekiston deya atalur	1 soat
11-dars	O‘zbekiston xalqi	1 soat
12-dars	O‘zbekiston davlati va Prezidenti	1 soat
13-dars	Amaliy mashg‘ulot: «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» mavzusida suhbat	1 soat
14-dars	Mustaqillik – bu avvalo huquqdir	1 soat
15-dars	Vatanimiz timsollari	1 soat
16-dars	Nazorat ishi	1 soat
17-dars	Umumlashtiruvchi, yakuniy dars	1 soat
	Jami	17 soat

## Vatan tuyg'usi 6-sinf (17 soat)

### I bob. Vatan ozodligi – oliy saodat

#### **1-dars: Eng ulug', eng aziz ayyom (1 soat)**

1 sentyabr – Mustaqillik kuni.

Vatan dunyodagi eng ulug', eng aziz ne'mat bo'lgani uchun uning mustaqilligi ham shu qadar buyuk va bebaho ekani.

Yaqin o'tmishimiz haqida Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida bildirgan fikrlari.

Vatan va mustaqillikning qadri.

Vatan tuyg'usini idrok etish.

#### **2-dars: Vatanimizning bosh maydoni (1 soat)**

Xalqimizning g'urur-iftixori ramziga aylangan muqaddas maskanlar.

Mamlakatimizning bosh maydoni – Mustaqillik maydoni.

Ezgulik arkasi, Mustaqillik va ezgulik monumenti, Xotira maydonining barpo etilishi tashabbuskori.

#### **3-dars: Bu muqaddas Vatanda azizdir inson (1 soat)**

Vatanimiz shuhratini dunyoga taratayotgan insonlar haqida.

Har bir inson – buyuk bir mo'jiza ekani.

Insonni qadrlash, uning hurmatini joyiga qo'yish mustaqil davlatimizning bosh vazifasi ekani.

Yurtning ozodligi va obodligi insonlarga bog'liq ekani.

#### **4-dars: Buyuk qadamjolar (1 soat)**

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida bunyod etilgan qutlug' qadamjolar.

Toshkent shahridagi Hazrati Imom, Imom Buxoriy va Samarqanddagi Imom Moturidiy, Marg'ilondagi Burhoniddin Marg'inoniy yodgorlik majmualari haqida.

#### **5-dars: O'zbekiston milliy bog'i (1 soat)**

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i, Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboni va ularning bunyod etilishi haqida.

Yurtimizning so'lim bog' va xiyobonlari.

#### **6-dars: Tarixiy xotira (1 soat)**

Tarixiy xotira har bir inson va xalqning vorisiylik tuyg'usi, ajdodlarga, o'tmishga hurmat va kelajakka ishonch hissini shakllantirishda beqiyos o'rin tutishi.

Tarixiy xotira tuyg'usining dunyodagi barcha xalqlarga xosligi.

Istiqlol tufayli biz o'zligimizni tanish, ota-bobolarimiz kimligini bilish imkoniyatiga ega bo'lganimiz.

#### **7-dars: Qadimiy Registon (1 soat)**

Samarqand shahridagi Registon maydoni – Sharq me'morlik san'atining noyob durdonasi ekani.

Maydonga mustaqillik yillaridagi e'tibor.

Qadimiy Registonning nufuzli anjumanlar o'tadigan maskanga aylanishi.

Mirzo Ulug'bekning dunyo ilm-fan rivojiga qo'shgan buyuk hissasi.

#### **8-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

## **II bob. Jahon mardni tan oladi**

### **9-dars: Ibratli fazilatlar (1 soat)**

Ma'naviyat haqida tushuncha.

Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi.

Moddiy boyluklarini ezgu ishlarga sarflagan buyuk insonlar haqida.

Olijanoblik bo'lmagan joyda salbiy illatlarning avj olishi.

Jamiyatning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladigan xususiyatlar.

### **10-dars: O'tda yonmaydigan meros (1 soat)**

"Avesto" - xalqimiz tafakkurining mumtoz namunasi ekani.

Yurtimiz shuhratini olamga yoygan buyuk allomalar.

Mahmud Zamahshariy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkir ajdodlarimiz haqida.

Ularning dunyo taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasi.

Vatanimiz hududidagi me'moriy obida va yodgorliklar.

### **11-dars: Milliy davlatchiligimiz (1 soat)**

O'zbek milliy davlatchiligining qadimiy ildizlari.

Temuriylar davlati – milliy davlatchiligimiz tarixining eng yorqin sahifasi ekani.

Milliy davlatchiligimiz tarixidagi mard yo'l boshchilar va fidoiy zotlar.

O'zbekiston mustaqilligi va milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi.

### **12-dars: O'zligimiz timsoli (1 soat)**

Qadriyat va milliy qadriyat haqida tushuncha.

Millat ruhi bo'lgan tilning xalqimiz taraqqiyotidagi o'rni.

Milliy qadriyatlarimiz rivojida umumbashariy qadriyatlarning ijobiy ta'siri. Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi bugungi taraqqiyotda muhim ahamiyatga ega ekani.

### **13-dars: Biz – O'zbekiston fuqarosimiz (1 soat)**

Fuqarolik haqida tushuncha.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi asoslarini belgilab beradigan qonun hujjatlari.

Fuqarolik burchi va mas'uliyati.

O'zbekiston fuqarosi bo'lish yuksak sharaf ekani.

### **14-dars: Vatanparvarlik (1 soat)**

Vatanni sharaflashning ma'no-mazmuni. Vatanparvarlikning ta'rifi. Vatanparvarlik - O'zbekiston fuqarolarining oliy fazilati ekani (Islom Karimov fikrlari).

Ota-bobolarimizning yurt himoyasi yo'lidagi qahramonliklari. Jaloliddin Manguberdi jasorati.

Ajdodlar an'analarini munosib davom ettirayotgan navqiron avlod.

### **15-dars: Vatanni ulug'lash (1 soat)**

Yoshlar hamma zamonlarda ham millat suyanchi, halqning tayanchi bo'lib kelgani.

Mustaqillik yillarida yoshlar tarbiyasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor.

Mafkuraviy immunitet haqida dastlabki ma'lumot.

### **16-dars: Jismoniy va ma'naviy yetuklik (1 soat)**

Sog'lomlik tushunchasi. Ruhiy va jismoniy sog'lomlik.

Komillik haqida tushuncha. Komillik – insoniyat orzusi. Barkamol insonga xos xislatlar.

O'zbekistonda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yertkazish uchun qilinayotgan ishlar.

Prezident Islom Karimovning barkamol avlod haqidagi fikrlari.

**17-dars: Nazorat ishi (1 soat)****“Vatan tuyg‘usi” fanidan mavzu rejasi  
6-sinf**

<b>Dars</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soati</b>
<b>I Bob. Vatan ozodligi – oliy saodat</b>		
1-dars	Eng ulug‘, eng aziz ayyom	1 soat
2-dars	Vatanimizning bosh maydoni	1 soat
3-dars	Bu muqaddas Vatanda azizdir inson	1 soat
4-dars	Buyuk qadamjolar	1 soat
5-dars	O‘zbekiston milliy bog‘i	1 soat
6-dars	Tarixiy xotira	1 soat
7-dars	Qadimiy Registon	1 soat
8-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>II Bob. Jahon mardni tan oladi</b>		
9-dars	Ibratli fazilatlar	1 soat
10-dars	O‘tda yonmaydigan meros	1 soat
11-dars	Milliy davlatchiligimiz	1 soat
12-dars	O‘zligimiz timsoli	1 soat
13-dars	Biz – O‘zbekiston fuqarosimiz	1 soat
14-dars	Vatanparvarlik	1 soat
15-dars	Vatanni ulug‘lash	1 soat
16-dars	Jismoniy va ma'naviy yetuklik	1 soat
17-dars	Nazorat ishi	1 soat
	Jami	17 soat



“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi  
“MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MA’NAVIYAT ASOSLARI”  
fanidan 7-9-sinflar uchun takomillashtirilgan  
o‘quv dasturi va mavzu rejasi

## MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MA’NAVIYAT ASOSLARI 7-SINF

### I Bob. MA’NAVIYAT – KUCH-QUDRAT MANBAI

#### 1-dars: Inson – ezgulik ijodkori (1 soat)

«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanining maqsad va vazifalari.

Insonni ulug‘laydigan ezgu fazilatlar, oliy maqsadlar va ibratli ishlar.

Inson ma’naviyatining shakllanishiga asos bo‘ladigan eng muhim omillar.

#### 2-dars: Ma’naviyat va uning ta’rifi (1 soat)

Inson va jamiyat hayotida moddiy hamda ma’naviy hayot uyg‘unligi.

Ruhiy poklanish, ko‘ngil tozaligi, qalban ulg‘ayish, ichki dunyo, inson irodasining baquvvatligi, imon, vijdon, iroda tushunchalari haqida.

Ma’naviyat – inson, xalq va jamiyat ongli hayotining asosiy belgisi.

#### 3-dars: Fikr va g‘oya (1 soat)

Fikr nima? Fikrning turlari, fikrning g‘oyaga aylanishi.

G‘oyaning ijtimoiy xarakteri.

Milliy g‘oya – ma’naviy ehtiyoj, xalqimiz manfaatlarini ifodaci bo‘lgan umumiy maqsadga aylangan g‘oya.

#### 4-dars: G‘oyaning asosiy xususiyatlari va turlari (1 soat)

G‘oyaning asosiy xususiyatlari.

G‘oyaning turlari.

Asl va soxta, bunyodkor va vayronkor g‘oyalar.

#### 5-6-dars: Jamiyat rivoji va bunyodkor g‘oyalar (2 soat)

Bunyodkor so‘zining ma’nosi. Bunyodkor g‘oyalarning paydo bo‘lishi. Amir Temur davlati erishgan barcha yutuqlar avvalo xalqning bunyodkorlik fazilatlariga asoslanishi.

Xalqimiz tarixida rivojlanishga asos bo‘lgan g‘oyalar.

Prezidentimiz Islom Karimov ilgari surgan “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay” degan tamoyilning ma’no-mazmuni.

#### 7-dars: “Ma’naviyatni anglash – insonni anglashdir” mavzusida amaliy mashg‘ulot. (1 soat)

#### 8-dars: Nazorat ishi (1 soat)

### II BOB. G‘OYAGA QARSHI G‘OYA, FIKRGA QARSHI FIKR

#### 9-10-dars: Zararli g‘oyalar (2 soat)

Bunyodkor va vayronkor g‘oyalar o‘rtasidagi tafovutlar.

Vayronkor g‘oyalarning xavfli tomonlari.

Bolshevizm, fashizm, tajovuzkor ateizmga asos bo‘lgan g‘ayriinsoniy g‘oyalar va ularning zararli oqibatlarini.

Vayronkor g'oyalarga qarshi bunyodkor g'oyalarning rivojlantirilishi hayotiy zarurat ekani. Mafkura tushunchasi.

**11-12-dars: Hushyorlik va ogohlik (2 soat)**

Hozirgi vaqtda aloqa va axborot almashish vositalarining kuchayib, yagona tizimga aylanib borayotgani. Shu borada qulayliklar bilan birga muammolarning yuzaga kelishi.

Soxta "ommaviy madaniyat" namunalarning inson qalbi va ongiga salbiy ta'siri.

Ma'naviy tahdid tushunchasi.

Loqaydlik va beparvolikka berilishning achinarli oqibatlari.

Mehr-oqibat, insoniylik xalqimizning eng buyuk fazilatlari ekani.

**13-14-dars: Milliy an'ana va qadriyatlar (2 soat)**

Har bir millat o'ziga xos an'ana va qadriyatlari bilan ajralib turishi.

Milliy qadriyat tushunchasi.

Milliy qadriyatlarimiz.

O'zbekistonning og'ir va uzoq davom etgan istibdod sharoitidagi hayoti.

Mustaqillik yillarida milliy an'ana va qadriyatlarimizning tiklanishi.

Tarixiy xotira – ma'naviy qudrat manbai.

**15-dars: Tarixiy yodgorliklar mavzusida amaliy mashg'ulot (1 soat)**

**16-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**III BOB. MA'NAVIYATGA TAHDID – O'ZLIGIMIZGA TAHDID**

**17-18-dars: Ko'zga ko'rinmas xatarlar. (2 soat)**

"Globallashuv"ning ma'nosi, ijobiy va salbiy jihatlari.

Ma'naviy-mafkuraviy tajovuzlar. Diniy aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizmning ma'no-mazmuni va ularning namoyon bo'lish shakllari.

"Ommaviy madaniyat".

O'zini o'zi asrab, ogoh bo'lib yashash – davr talabi.

**19-dars: Shaxs tarbiyasi (1 soat)**

Shaxs bo'lib yetishishning muhim talablari.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligi. Komillikka erishishning muhim sharti – bilimdonlik hisoblanishi.

Prezidentimiz Islom Karimovning "Kuch – bilim va tafakkurda" degan g'oyasining mazmun-mohiyati.

**20-21-dars: Jamiyatga xavf soladigan illatlar (2 soat)**

Xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, ta'magirlik va manfaatparastlik, manmanlik va boshqalarni mensimaslik, hasad va sotqinlik kabi illatlarning jamiyat hayoti uchun nihoyatda xavfli ekani haqida. Bunday illatlardan forig' bo'lish shartlari.

**22-23-dars: Inson qalbiga yo'l (2 soat)**

Insonlarning go'zallikka intilishi.

San'atni tushunish, his etish odamning har tomonlama yuksalishi, ma'naviy boyishiga sabab bo'lishi.

San'at xalq ma'naviy-ruhiy qiyofasining ko'zgusi ekani.

Mamlakatimizda Yurtboshimizning tashabbusi bilan musiqa va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar.

**24-25-dars: Tarixiy xotirani tiklashda san'atning ahamiyati (2 soat)**

Mustaqillik yillarida Sohibqiron bobomiz Amir Temurning muborak nomi va xotirasining tiklanishi.

Monumental san'at va uning o'ziga xos jihatlari.

Yurtimizdagi tabarruk qadamjolarining tiklanishi.

Mustaqillik yillarida barpo etilgan yodgorlik majmualari.

Ona yurti sevish, xalqni e'zozlash ham, aslida, buyuk san'at ekani.

**26-dars: Nazorat ishi (1 soat)****IV BOB. YUKSAK MA'NAVIY MEZONLAR****27-28-dars: Insonparvarlik – xalqimizning ezgu fazilati (2 soat)**

Insonparvarlik tushunchasi.

Xalqimizga xos insonparvarlik xislatlari.

Islom dinida insonparvarlik.

Insonparvarlikning ko'inishlari.

Yurtboshimizning “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson!” degan ezgu g'oyasining ma'no-mohiyati.

**29-30-dars: Ma'naviyatning shakllanishida oilaning o'rni (2 soat)**

Inson tarbiyasida, uning ma'naviy kamolotida oila muhitining muhim o'rin tutishi.

Ota-ona – oila ma'naviy muhitining ustunlari.

Oilada mehnatning to'g'ri taqsimlanishi.

Mustaqillik yillarida oilani har jihatdan mustahkamlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar.

**31-32-dars: Axloq-odob – ma'naviyat negizi (2 soat)**

Axloq-odob me'yorlari — inson hayot tarzining poydevori.

Insonning ma'naviy qiyofasi.

Insonni bezaydigan, uni atrofdagilarga chiroyli ko'rsatadigan belgi – uning tili hisoblanishi.

Insonning xulqi va odobining shakllanishida tashqi omillarning ta'siri.

Odob-axloqning milliy me'yorlari.

**33-dars: Nazorat ishi. (1 soat)****34-dars Takrorlash. (1 soat)**

**Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari  
fanidan mavzu rejasi  
7-sinf**

Dars	Mavzular	Soati
<b>I chorak (8 soat)</b>		
<b>I Bob. Ma'naviyat – kuch-qudrat manbai</b>		
1-dars	Inson – ezgulik ijodkori	1 soat
2-dars	Ma'naviyat va uning ta'rifi	1 soat
3 -dars	Fikr va g'oya	1 soat
4-dars	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	1 soat
5-6-dars	Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar	2 soat
7-dars	“Ma'naviyatni anglash – insonni anglashdir” mavzusida amaliy mashg'ulot.	1 soat
8-dars	Nazorat ishi	1 soat

<b>I chorak (8 soat)</b>		
<b>II Bob. G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr</b>		
9-10-dars	Zararli g'oyalar	2 soat
11-12-dars	Hushyorlik va ogohlik	2 soat
13-14-dars	Milliy an'ana va qadriyatlar	2 soat
15-dars	Tarixiy yodgorliklar mavzusida amaliy mashg'ulot	1 soat
16-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>III chorak (10 soat)</b>		
<b>III Bob. Ma'naviyatga tahdid – o'zligimizga tahdid.</b>		
17-18-dars	Ko'zga ko'rinmas xatarlar	2 soat
19-dars	Shaxs tarbiyasi	1 soat
20-21-dars	Jamiyatga xavf soladigan illatlar	2 soat
22-23-dars	Inson qalbiga yo'l	2 soat
24-25-dars	Tarixiy xotirani tiklashda san'atning ahamiyati	2 soat
26-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>IV chorak (8 soat)</b>		
<b>IV Bob. Yuksak ma'naviy mezonlar</b>		
27-28-dars	Insonparvarlik – xalqimizning ezgu fazilati	2 soat
29-30-dars	Ma'naviyatning shakllanishida oilaning o'rni	2 soat
31-32-dars	Axloq-odob – ma'naviyat negizi	2 soat
33-dars	Nazorat ishi	1 soat
34-dars	Takrorlash	1 soat
	<b>Jami</b>	<b>34 soat</b>

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MA'NAVIYAT ASOSLARI 8-SINF

### I Bob. MILLIY G'OYA – EZGU ORZU-INTILISHLAR IFODASI

#### 1-dars: Bunyodkor xalq (1-soat)

Bunyodkorlik tuyg'usi.

Insoniyat uchun bunyodkorlik ramziga aylangan me'moriy mo'jizalar.

Xalqimizning bunyodkorlik fazilatlarini.

Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati haqida tushuncha.

Inson – yangi jamiyat qurishda eng asosiy bunyodkor kuch.

#### 2-3-dars: Bizning milliy g'oyamiz (2 soat)

Milliy g'oya xalqning, millatning maqsad-muddolari natijasi sifatida.

Milliy g'oyamizning asosini tashkil etuvchi uch buyuk maqsadimiz.

Milliy g'oyamiz oziqlanadigan manbalar.

Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida milliy g'oyamiz tamoyillarining yaratilishi.

#### 4-dars: Yurt tinchligi (1 soat)

Tinchlik – dunyodagi eng buyuk boylik.

Urushning insonlar, xalqlar hayotiga halokatli ta'siri.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash uchun olib borilayotgan ishlar.

#### 5-dars: Vatan ravnaqi (1 soat)

Vatan – ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, insonning g'ururi timsoli.

Vatan ravnaqi uning farzandlari qo'lida.

Mustaqillik yillarida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, ularning natijalari.  
Ozodlik va mustaqillik – Vatan ravnaqiga erishishning asosiy shartlari.

**6-dars: Xalq farovonligi. (1 soat)**

Xalq farovonligi haqida tushuncha.

Xalq farovonligiga erishish shartlari.

Xalq farovonligiga erishishda insondagi erkinlik hissi, tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuygʻusining ahamiyati.

**7-dars: Obodlik koʻngildan boshlanadi (amaliy mashgʻulot). (1 soat)**

**8-dars: Nazorat ishi. (1 soat)**

**II Bob. MILLIY GʻOYa VA MA'NAVIY HAYOT UYGʻUNLIGI**

**9-10-dars: Komil inson (2 soat)**

Komillik tushunchasi.

Komil inson gʻoyasi.

Komillik timsoliga aylangan buyuk ajdodlarimiz.

Komil inson fazilatlarini.

**11-12-dars: Ijtimoiy hamkorlik (2 soat)**

Ijtimoiy hamkorlik gʻoyasi.

Ijtimoiy hamkorlik – mustaqil va erkin hayotni asrashning eng muhim shartlaridan biri.

Xalqimizning azaldan ahillik va inoqlikni qoʻllab-quvvatlab, qadrlab kelishi.

Prezidentimizning, ajdodlarimizning hamkorlik toʻgʻrisidagi fikrlari.

**13-dars: Millatlararo hamjihatlik (1 soat)**

Oʻzbekiston – koʻpmillatli mamlakat.

“Bu aziz Vatan – barchamizniki” gʻoyasining maʼno-mazmuni.

Millatlararo hamjihatlik va totuvlik gʻoyasi.

Xalqimizga xos boʻlgan doʻstlik, birodarlik fazilatlarini.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illatlar.

**14-15-dars: Dinlararo bagʻrikenglik (2 soat)**

Inson hayotida diniy anʼanalarning oʻrni.

Diniy bagʻrikenglik.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi qonun. Yurtimizda faoliyat koʻrsatayotgan diniy konfessiyalar.

Tolerantlik, diniy konfessiya soʻzlarining maʼnosi.

**16-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**III Bob. Maʼnaviyatning muhim shartlari**

**17-dars: Jamoa tuygʻusi (1 soat)**

Xalqimizda jamoaviylikning oʻziga xos xususiyatlari.

Mustaqillik yillarida jamoaviylikka xos anʼana va qadriyatlarimizning tiklanishi.

Jamoda yetakchining oʻrni va taʼsiri.

Individuallik haqida tushuncha.

**18-19-dars: Insonni anglash (2 soat)**

Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerakligi.  
Inson qalbiga yo'l.

Inson bir umr o'zini anglashga harakat qilishi.

Insonni anglab, uning qadr-qimmatini ulug'lab yashash – yuksak ma'naviyat va odamiylik belgisi.

**20-dars: Qonun ustuvorligi (1 soat)**

Mamlakatimizda qonun ustuvorligi.

Huquqiy madaniyat tushunchasi.

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas, uzviy bir qismi ekani.

Huquqning nazariy va amaliy shakllari.

**21-dars: Internetdan foydalanish madaniyati (amaliy mashg'ulot) (1 soat)****IV Bob. MA'NAVIYA T – JAMIYA T VA MILLAT RAVNAQINING BOSH OMILI****22-23-dars: Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi (2 soat)**

Ma'naviyatning inson faoliyati bilan bog'liqligi.

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy me'zonlar.

Yuksak ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi.

**24-25-dars: Do'stlik – yuksak ma'naviy tushuncha (2 soat)**

Do'stlik tushunchasi.

Do'stlik – insonda o'ziga ishonch orttiruvchi kuch ekani.

Haqiqiy va soxta do'stlik.

Millatlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik.

**26-dars: Nazorat ishi (1 soat)****27-dars: Ekologik madaniyat (1 soat)**

Inson ma'naviyatining yuksalishida ona tabiat go'zalligidan zavqlanish hissining ahamiyati.

Ekologik madaniyat tushunchasi.

Xalqimizning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng dolzarb ekologik muammolar va ularning sabablari.

**28-dars: Bizga tanish va notanish tabiat (amaliy mashg'ulot) (1 soat)****29-dars: Vaqtni qadrlash – ma'naviyat mezoni (1 soat)**

Vaqt mezoni, undan foydalanish.

Vaqtning inson hayotiga, uning faoliyatiga, dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri.

Bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlash. Kitob mutolaasi bilan shug'ullanishning afzalligi.

**30-dars: Navro'z – eng aziz, eng milliy bayram (1 soat)**

Navro'z – Sharq xalqlarining yangilanish va ezgulik timsoli.

Navro'z – mehnat va bunyodkorlik, tinchlik, mehr-oqibat, insonparvarlik, do'stlik, birodarlik, tansihatlik bayrami.

Navro'z taomlari va tantanalari.

Navro'z bayramining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni.

Mustaqillik yillarida Navro'z bayramining nishonlanishi.

**31-32-dars: Tarixiy xotira (2 soat)**

Xotira – millat o'zligini mujassam etadigan buyuk qadriyat.

Sobiq sho'rolar davrida xalqimiz tarixining toptalishi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalqimiz tarixiy xotirasini tiklash borasida olib borilgan ulkan ishlar.  
Yurtimizda o‘tganlarni xotirlash – ularni eslash maqsadida olib borilayotgan xayrli ishlar.

**33-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**34-dars: Yakuniy va umumlashtiruvchi dars (1 soat)**

**Milliy istiqlol g‘oyasi va ma'naviyat asoslari  
fanidan mavzu rejasi  
8-sinf**

<b>Dars</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soati</b>
<b>I chorak (8 soat)</b>		
<b>I Bob. Milliy g‘oya – ezgu orzu-intilishlar ifodasi</b>		
1-dars	Bunyodkor xalq	1 soat
2-3-dars	Bizning milliy g‘oyamiz	2 soat
4-dars	Yurt tinchligi	1 soat
5-dars	Vatan ravnaqi	1 soat
6-dars	Xalq farovonligi	1 soat
7-dars	Obodlik ko‘ngildan boshlanadi (amaliy mashg‘ulot).	1 soat
8-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>II chorak (8 soat)</b>		
<b>II Bob. Milliy g‘oya va ma'naviy hayot uyg‘unligi</b>		
9-10-dars	Komil inson	2 soat
11-12-dars	Ijtimoiy hamkorlik	2 soat
13-dars	Millatlararo hamjihatlik	1 soat
14-15-dars	Dinlararo bag‘rikenglik	2 soat
16-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>III chorak (10 soat)</b>		
<b>III Bob. Ma'naviyatning muhim shartlari</b>		
17-dars	Jamoa tuyg‘usi	1 soat
18-19-dars	Insonni anglash	2 soat
20-dars	Qonun ustuvorligi	1 soat
21-dars	Internetdan foydalanish madaniyati (amaliy mashg‘ulot)	1 soat
<b>IV Bob: Ma'naviyat – jamiyat va millat ravnaqining bosh omili</b>		
22-23-dars	Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi	2 soat
24-25-dars	Do‘stlik – yuksak ma'naviy tushuncha	1 soat
26-dars	Nazorat ishi	
<b>IV chorak (8 soat)</b>		
27-dars	Ekologik madaniyat	1soat
28-dars	Bizga tanish va notanish tabiat (amaliy mashg‘ulot)	1 soat
29-dars	Vaqtни qadrlash – ma'naviyat mezonі	1 soat
30-dars	Navro‘z – eng aziz, eng milliy bayram	1 soat
31-32-dars	Tarixiy xotira	2 soat
33-dars	Nazorat ishi	1 soat
34-dars	Yakuniy va umumlashtiruvchi dars	1 soat
	<b>Jami</b>	<b>34 soat</b>

## MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MA'NAVIYAT ASOSLARI 9-SINF

### I Bob. Mustaqillik va milliy g‘oya

#### 1- 2-dars: Eng ulug‘ maqsad (2 soat)

Mustaqillik — milliy g‘oyamizning bosh tamoyili ekani.  
Milliy istiqloL g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari.  
G‘oya va ma'naviyatning shakllanishi.

#### 3-4-dars: Milliy g‘oya va taraqqiyot (2 soat)

Milliy g‘oyaning bosh maqsadi.  
Milliy g‘oyaning milliy o‘zlik, g‘urur-iftixor timsoliga aylanishi.  
Prezidentimiz Islom Karimovni ulkan jasoratga undagan kuch.

#### 5-6 dars: Dunyoning mafkuraviy manzarasi (2 soat)

Dunyoning mafkuraviy manzarasi tushunchasi.  
G‘oyalarning jamiyat rivojida tutgan o‘rni.  
Bunyodkor g‘oyalar — jamiyat rivojining asosi.  
Xalqimiz tarixida rivojlanishga asos bo‘lgan g‘oyalar.  
Buzg‘unchi g‘oyalarning asosiy belgilari.  
Prezidentimiz Islom Karimovning bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi haqidagi fikrlari.

#### 7- dars: Mafkuraviy poligon (1 soat)

Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega ekani.  
Diniy ekstremizm, terrorchilik din va millat tanlamasligi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillarga asoslangan taraqqiyot.  
Mafkuraviy kurash vositalari. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash turli mafkuralarning asosiy maqsadi ekani.

#### 8- dars: Nazorat ishi (1 soat)

### II Bob. Milliy g‘oya va barkamol avlod

#### 9- 10-dars: G‘oyaviy bo‘shliq (2 soat)

G‘oyaviy beqarorlik va mafkuraviy tahdid.  
Mafkuraviy tahdidlar zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy ko‘rinishi ekani.  
Globalashuv jarayonlari va ularning jamiyat hayotiga ta'siri.

#### 11-12- dars: Mafkuraviy immunitet (2 soat)

Mafkuraviy immunitet zarurati.  
Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlari.  
Jaholatga qarshi ma'rifat asosida kurashish.  
Jamiyatimiz hayotiga chetdan xavf solib turgan mafkuraviy tahdidlar haqida.

#### 13-14 dars: Ona tili – millat ruhi (2 soat)

Millatning o‘zligini namoyon etishida tilning o‘rni.  
Xalqimizning dunyo sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasida o‘zbek tilining ahamiyati.  
Ona tili – ezgu fazilatlar manbai.  
Til bilish ham – madaniyat.  
O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni.



**15-dars: Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi (1 soat)**

Milliy va umumbashariy qadriyatlarning bir-biridan farqi.  
Xalqimizning umumbashariy qadriyatlar rivojiga qo'shgan hissasi.

**16- dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**17-dars: Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning ahamiyati (1 soat)**

Taraqqiyot yo'li va modelning ma'no-mazmuni.  
Jamiyatni isloh qilishning o'zbek modelini tashkil etadigan besh tamoyil.  
Islohotlarning mazmuni.  
Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning mohiyati.

**18-dars: Amaliy mashg'ulot: Bugungi islohotlar haqida suhbat (1 soat)**

**III Bob. Ma'naviyatning mustahkam tayanchlari**

**19-20-dars: Ma'naviyat qo'rg'oni (2 soat)**

Oilaning ma'naviy iqlimi.  
Oilada ota-ona va farzand munosabatlari.  
Oilada farzand tarbiyasiga oid hikmatli so'zlar, Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida oila to'g'risida bildirilgan fikrlar.

**20-21-dars: Milliy qadriyatlar maskani (2 soat)**

Mahallaning jamiyatda tutgan o'рни.  
Mahalla – insonlar o'rtasida birlik va hamjihatlikni qaror toptiruvchi muqaddas dargoh.  
Mahalla – o'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli sifatida.  
Mahalla – demokratiya darsxonasi.  
Mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o'рни va maqomi.

**22-23-dars: Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi (2 soat)**

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.  
Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Avloniyning tarbiya haqida aytgan fikrlari.  
Bolaning ma'naviy yetuk shaxs bo'lib kamol topishida o'qituvchi- murabbiylarning o'рни.  
Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar.

**24-25-dars: Ma'naviyatga tahdid – o'zligimizga tahdid (2 soat)**

Jamiyatimizning ustuvor qadriyatlari.  
Hayotimizga soya solayotgan illatlar (ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik va h.k.) va ularning oqibatlari.  
Donishmandlarning ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlikning zararlari haqidagi fikrlari.

**26-dars: Nazorat ishi (1 soat)**

**IV Bob. Eng buyuk jasorat**

**27- dars: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi (1 soat)**

Dunyoning, odamning va jamiyatning paydo bo'lishi haqidagi turli qarashlar.  
Mamlakatimiz hayotida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligining namoyon bo'lishi.  
Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

**28-dars: Amaliy mashg'ulot: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi (1 soat)**

**29-30-dars: Halol mehnat – ma'naviy yuksalish garovi (2 soat)**

Inson tarbiyasida mehnatning o'рни. Aqliy va jismoniy mehnat. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish.

Ustoz-shogird an'analari.

Mehnat va mehnatsevarlikni ulug'lovchi xalq maqollari.

**31-32-dars: Ma'naviy jasorat (2 soat)**

Ma'naviy jasorat tushunchasi.

Ajdodlarimizning ma'naviy jasorati.

Yoshlarning ma'naviy uyg'oqligi millatni asraydigan asosiy omillardan biri ekanligi.

Milliy mustaqilligimiz – buyuk ma'naviy jasorat namunasi.

**33-dars: Nazorat ishi (1 soat)****34-dars: Umumlashtiruvchi dars (1 soat)**

**Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari  
fanidan mavzu reja  
9-sinf**

Dars	Mavzular	Soati
<b>I chorak (8 soat)</b>		
<b>I Bob. Mustaqillik va milliy g'oya</b>		
1-2-dars	Eng ulug' maqsad	2 soat
3-4-dars	Milliy g'oya va taraqqiyot	2 soat
5-6-dars	Dunyoning mafkuraviy manzarasi	2 soat
7-dars	Mafkuraviy poligon	1 soat
8-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>II chorak (8 soat)</b>		
<b>II Bob. Milliy g'oya va barkamol avlod</b>		
9- 10-dars	G'oyaviy bo'shliq	2 soat
11-12- dars	Mafkuraviy immunitet	2 soat
13-14 dars	Ona tili – millat ruhi	2 soat
15-dars	Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi	1 soat
16- dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>III chorak (10 soat)</b>		
17-dars	Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning ahamiyati	1 soat
18-dars	Amaliy mashg'ulot: Bugungi islohotlar haqida suhbat	1 soat
<b>III Bob. Ma'naviyatning mustahkam tayanchlari</b>		
19-dars	Ma'naviyat qo'rg'oni	1soat
20-21-dars	Milliy qadriyatlar maskani	2 soat
22-23-dars	Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi	2 soat
24-25-dars	Ma'naviyatga tahdid – o'zligimizga tahdid	2 soat
26-dars	Nazorat ishi	1 soat
<b>IV chorak (8 soat)</b>		
<b>IV Bob. Eng buyuk jasorat</b>		
27- dars	Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi	1 soat
28-dars	Amaliy mashg'ulot: Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi	1 soat
29-30-dars	Halol mehnat – ma'naviy yuksalish garovi	2 soat
31-32-dars	Ma'naviy jasorat	2 soat
33-dars	Nazorat ishi	1 soat

34-dars	Umumlashtiruvchi dars	1 soat
	<b>Jami</b>	<b>34 soat</b>